«T A S D I Q L A Y M A N"

O'zmilliybank AJ
Uychi BXM boshqaruvchisi
_____ J.Maxamov

«25» fevral 2026 yil

"O'zmilliybank"AJ Uychi BXMda **"Korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish chora tadbirlari"** tamoyili asosida o'tkazilgan

Majlis bayoni

2026 yil "25" fevral **Uychi tumani**

Raislik qiluvchi:	J.Maxamov	-Uychi BXM boshqaruvchisi
Ishtirok etdilar:	Z.Qirg'izov	- O'zmilliybank AJ Korrupsiyani oldini olish boshqarmasi Namangan viloyati bo'yicha bosh mutaxassisi
		-Boshqaruvchi o'rinbosarlari, bo'lim boshliqlari, BXM hodimlari

KUN TARTIBI

O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki AJ Uychi bank xizmatlari martkazida Korrupsiyaga qarshi kurashish xamda uning oldini olish borasidagi ishlar axvolini muxokama qilish va zarur chora-tadbirlarni belgilash.

Kun tartibidagi masala yuzasidan BXM boshqaruvchisi J.Maxamov so'z olib qo'yidagilarga to'xtalib o'tdi. Xozirda O'zbekistonda jamiyat taraqqiyotining eng asosiy muammolaridan biri boshqaruvda qonun ustunligini to'liq ta'minlash, insonlarning huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish hisoblanadi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish davlat organlari faoliyatida korrupsiyaviy holatlarni to'liq bartaraf etishni talab etadi. Shu ma'noda, korrupsiyaga qarshi kurashish davlat va jamiyatning umumiy muammosi hisoblanib, unga qarshi kurashish barcha jamiyat a'zolari va davlat organlarining ustuvor vazifasi hisoblanadi. Mamlakatimizda jamiyatdagi muammolarga yechim topishda jamoatchilik nazoratiga tayanish lozimligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero, korrupsiyaga qarshi kurash olib boruvchi sub'ektlar tizimida jamoatchilik nazorati sub'ektlari ham muhim o'rin tutadi. Korrupsiyaga qarshi kurashishda shaxslar ongida shakllangan axloqiy qadriyatlari muhim ahamiyatga ega. Ya'ni, halollik va to'g'rilik, adolat va tenglik kabi tamoyillar shaxslarni o'zaro munosabatlarda turli haqsizliklardan himoya qiladi. Zero rivojlangan korrupsiyasiz jamiyatni ma'nan yetuk va korrupsiyaga qarshi qarashga ega fuqarolar yordamidagina barpo etish mumkin.

korrupsiyaga qarshi kurashish nafaqat huquqiy majburiyat, balki ma'naviy burch ham hisoblanmog'i lozim. Shu ma'noda, fuqarolarning korrupsiyaga qarshi ongi ularning faol fuqarolik pozitsiyaning ajralmas qismi hamdir.

Xozirgi kunda Respublikamizda "Korrupsiyaga qarshi kurashish" bo'yicha bir qator muxim vazifalar amalga oshirilayotganligi xamda xar bir tashkilotda Korurupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha aniq chora tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan bo'lib ushbu masalalar buyicha bank xodimlariga batafsil tushunchalar berib o'tdi. Shuningdek bankda ishlovchi barcha xodimlar bilan firibgarlik va korrupsiyaga qarshi kurashish talablariga rioya qilish bo'yicha majburiyatnoma tuzilganligi va xodimlardan ish faoliyati davomida ushbu majburiyatnomada o'z zimmasiga olgan talablarga qat'iy rioya qilishlari lozimligini ta'kidladi.

Shundan so'ng so'zni "O'zmilliybank"AJ Korrupsiyani oldini olish boshqarmasi Namangan viloyati bo'yicha bosh mutaxassisi Z.Qirg'izov olib qo'yidagilarga to'xtalib o'tdi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida xalq ravnaqi va farovonligi yo'lida amalga oshirilayotgan muhim va dolzarb masalalar qatorida Korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishi ham o'ta muhim ahamiyatni kasb etuvchi masalalardan biri bo'lib, unga qarshi kurashish va oldini olish borasida ko'plab chora-tadbirlar belgilanmoqda.

Xususan, mamlakatimizda davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish, uni keltirib chiqarayotgan sabab va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish borasida tizimli choralar ko'rilmoqda. 2016 yil 24 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi tomonidan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun qabul qilinib, 2021 yil 13 dekabrda Senat tomonidan ma'qullandi.

Ushbu qonun talablaridan kelib chiqib, uning samarali ijro etilishini ta'minlash maqsadida, Hukumatning Korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida bir qator qonun osti hujjatlari, ya'ni Farmon va Qarorlari, shuningdek, tegishli me'yoriy hujjatlar qabul qilinib, ijroga qaratildi.

Ta'kidlash joizki, mazkur qonunda quyidagi tushunchalarga normativ ta'rif berildi:

korrupsiya - shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishi yoki sharoit yaratib berishi;

manfaatlar to'qnashuvi - shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat;

Davlat organlarining xodimlari mansab yoki xizmat majburiyatlarini bajarish chog'ida manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan shaxsiy manfaatdorlikka yo'l qo'ymaslik kerak.

Manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda, davlat organlarining xodimlari o'zining bevosita rahbarini darhol xabardor qilishi kerak. Manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi to'g'risida ma'lumotlar olgan rahbar bu to'qnashuvni oldini olish yoki uni bartaraf etish yuzasidan o'z vaqtida choralar ko'rishi shart.

O'zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati talablari - egallab turgan lavozimi va bajarayotgan funksiyasidan qat'iy nazar barcha xodimlari uchun birdek amal qiladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunda korrupsiyaga qarshi kurashishning **asosiy prinsiplari** belgilab berilgan.

Bular - Qonuniylik, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, ochiqlik, shaffoflik, tizimlilik, davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi, korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi hamda javobgarlikning muqarrarligidir.

Shuningdek, qonunda Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, ya'ni,

- aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;
- davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta'minlash tushunchalari 5-modda bilan aniq belgilab berilgan.

Ushbu qonun asosida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligini oshirish, eng yuqori darajadagi qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, mamlakatning xalqaro maydondagi ijobiy obro'-e'tiborini oshirish maqsadida, shuningdek, ustuvor yo'nalishlar bo'yicha belgilangan asosiy vazifalarni bajarilishini ta'minlash bugungi kunda eng dolzarb masala bo'lib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 maydagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi **PF-5729-sonli Farmoni** qabul qilinib, 2019-2020 yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish **Davlat Dasturi**, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika **idoralararo komissiyasi tarkibi** hamda shu sohadagi faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan **chora-tadbirlarni ishlab chiqish bo'yicha maxsus komissiya tarkibi tasdiqlandi.**

Mazkur Farmon asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq duputatlari kengashi, tuman va shahar xalq deputatlari kengashlarining tarkibida korrupsiyaga qarshi kurashish **komissiyalarini tashkil etish tavsiya qilinib,** ularning zimmalariga korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishidagi masalalar bo'yicha qator vazifalar yuklatilgan.

Farmon korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosatining - Qonun qabul qilinganidan so'nggi dastlabki amalga oshiriladigan vazifalar, yo'nalishlar, tadbirlar, strategiyalar, idora va tegishli tashkilotlarning istiqboldagi funksiyalari hamda Komissiyaning hamkorlik masalalarini o'zida mujassam etgan.

O'zbekiston Respublikasi **Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrda 829-sonli Qarori** qabul qilinib, unga asosan "Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risida"gi Nizom tasdiqlanib, ijroga qaratilgan.

Ushbu Nizom 4 ta bob, 29 ta banddan iborat bo'lib, unda asosiy tushunchalar va ularning amaliyotda qo'llanilishi belgilangan.

Xususan, 1 bobda;

- Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki unga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslar,
- Korrupsiyaga qarshi kurashishga faol ishtirok etish,
- Korrupsiyaga qarshi kurashishda boshqa tarzda ko'maklashish,

- Korrupsiyaga oid jinoyatlar,

- Korrupsiyaga oid jinoyatlarni aniqlash va fosh etish bilan bog'liq tezkor-qidiruv tadbirlarini hamda protsessual harakatlarni amalga oshiruvchi organlar haqida tushunchalar berilgan.

2-bob Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish asoslari va tushunchalari haqida bo'lib, unda rag'batlantirish kategoriyalari belgilangan.

3-bobda xabar bergan yoki ko'maklashgan shaxslarni rag'batini ko'rib chiqish tartibi bo'lib, unga aynan mazkur yo'nalishdagi amaliyot mexanizmi va talablari yoritib berilgan.

4-bob esa yakuniy qoidalar, shaxslar va ularning yaqinlari xavfsizligini ta'minlash, nizolar va javobgarliklar haqidadir.

Yuqorida qayd etilgan, ya'ni, 2019 yil 27 maydagi PF-5729-sonli va 2020 yil 29 iyundagi PF-6013-sonli Prezident Farmonlari hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligiga davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, davlat korxonalari va ustav kapitalida davlat ulushi bo'lgan korxonalar hamda **Banklarda** korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat tizimi **(komplaens-nazorat)** tashkil etish to'g'risida aniq vazifa va topshiriqlar belgilab berilgan.

Korrupsiyaga qarshi komplaens nazorat – davlat va ho'jalik boshqaruvi organlari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro standartlar, qonun va boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarga muvofiq tashkil etuvchi, korrupsiya xavf-xatarlari, manfaatlar to'qnashuvini o'z vaqtida aniqlash va chek qo'yish, qonun buzilishini va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar berishni o'zida mujassam etgan profilaktik tizimdir.

Komplaens nazorat tizimi ilk bor AQShda 1906 yilda vujudga kelgan. Bunga zaruriyat mamlakat iqtisodiyotida xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan kompaniya va korporatsiyalarning tashkil etilishi bilan bog'liq bo'lgan.

O'tgan asrning ikkinchi yarimidan bugungi kunlargacha yirik kompaniyalar bilan bo'lgan nizoli vaziyatlar xususiy sektorda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimlarni tubdan isloh etishni taqazo qilgan.

Bugungi kundagi rasmiy ma'lumotlarga qaraydigan bo'lsak, 150 dan ortiq mamlakatlar kompaniyalarida korrupsiyaga qarshi komplaens nazorat tizimi joriy etilganligi ma'lum bo'ladi.

Yuqorida zikr etilgan vazifalarni talab darajasida ijro etilishini ta'minlash hamda sohada korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishini shakllantirish, shuningdek, bu boradagi ishlar samaradorligini oshirish maqsadida, **"O'zmilliybank" AJ Boshqaruv Raisining 2021 yil 1 martdagi 164-sonli buyrug'i** e'lon qilinda va unga asosan Axborot va bank xavfsizligi departamenti tarkibida Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasi tashkil etildi, shuningdek, ko'p yillik tajriba hamda malakaga ega bo'lgan rahbar va xodimlardan iborat shaxsiy tarkibi jamlandi.

Bugungi kunda, ushbu boshqarma tomonidan O'zbekiston Respublikasining **"Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni,** Prezident Farmon va Qarorlarida belgilangan vazifa va topshiriqlar ijrosini ta'minlash, Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligi bilan amaliy hamkorlikni yo'lga qo'yish masalalarida qator ishlar amalga oshirilib, Bankning bu sohadagi tegishli me'yoriy-huquqiy bazasi shakllantirilmoqda.

Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi xodimi - tashkilotda faoliyat olib borayotgan xodimlar tomonidan kasbiy odob-axloq qoidalariga qat'iy rioya etilishi, xizmat vazifalarini bajarishda **manfaatlar to'qnashuvining yuzaga kelishini oldini**

olishda nazoratni amalga oshiruvchi hamda tashkilotda korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish siyosatini yuritish uchun mas'ul deb etirof etiladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida amalga oshirilayotgan ishlar doimiy ravishda sarhisob etilib, bu borada aniqlanayotgan xato-kamchiliklarni bartaraf etish, samaradorlikni oshirish, korrupsiyaga nisbatan davlat va jamiyatning murosasiz munosabatini kuchaytirish, jamoatchilik ishtirokini kengaytirish, unda korrupsiyaga qarshi **"immunitet"ni** shakllantirish, shuningdek, bu yo'nalishdagi aniq strategiyalarni belgilab olish maqsadida, 2021 yilning 6 iyulida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Korrupsiyaga qarshi **murosasiz munosabatda bo'lish** muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi **PF-6257-sonli Farmoni** e'lon qilindi.

Ushbu Farmonda - mamlakatimizni rivojlantirish bosqichida korrupsiya jiddiy xatar ekanligi, korrupsiya holatlarining har qanday ko'rinishlariga nisbatan **murosasiz munosabatda bo'lish** hamda unga qarshi ayovsiz kurashish barcha darajadagi davlat organlari rahbar va xodimlarining ustuvor vazifalari ekanligi alohida belgilab qo'yilgan.

Shuningdek, mazkur Farmonga asosan **"Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2021-2022 yillarga mo'ljallangan" Davlat Dasturi** tasdiqlandi.

Mazkur Dastur 5 ta asosiy yo'nalishlar va ularning amaliy ijrosiga qaratilgan 44 ta bandlardan iborat bo'lib, unda 2021-2022 yillarda erishish lozim bo'lgan aniq vazifalar, mexanizmlar va mas'ul ijrochi tashkilotlar belgilab berilgan.

Jumladan, 5 ta asosiy yo'nalishlar bular,

- Korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini takomillashtirish;
- Davlat xaridlari sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish va manfaatlar to'qnashuvini oldini olish;
- Korrupsiyaga qarshi kurashish tuzilmalari faoliyatini yanada takomillashtirish;
- Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro standartlarni joriy qilish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish;
- Davlat organlari faoliyati ochiqligini ta'minlash, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish kabilar.

Shu bilan birga, yuqorida zikr etilgan PF-6257-sonli Prezident Farmoni talablariga muvofiq hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirilishini samarali tashkil etish maqsadida, **2021 yil 6 iyulda "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5177-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori** e'lon qilinib, unga asosan vazirlik va idoralarning aynan mazkur yo'nalishdagi tadbirlarni to'laqonli ijro etilishini ta'minlovchi mexanizmlar yaratish va yo'lga qo'yil bo'yicha aniq vazifalar belgilab berildi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan Farmon va Qarorlarda qayd etilgan xalqaro standartlar va xalqaro tajribalardan samarali foydalangan holda amaliyotga tadbiq etish masalalarida ham qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu borada **"O'zmilliybank" AJ** tomonidan samaradorlikni oshirish maqsadida, amalga oshirilayotgan ishlar va chora-tadbirlar misolida, "Pora olish-berish bilan kurashish menejmenti tizimlari" ISO 37001: 2016, IDT O'zbekiston Respublikasi Davlat standarti joriy etilib, unga asosan 2021 yilning 21-24 sentyabr kunlari Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashi boshqarmasi va uning hududiy filiallari bo'yicha xodimlari uchun **"ISO asosidagi poraxo'rlikka qarshi boshqaruv tizimining ichki auditi"** bo'yicha o'quv trening kursi tashkil etildi. O'quv kursining yakuni hamda jalb etilgan xodimlar trening natijalari bo'yicha maxsus sertifikatlar taqdim etildi.

Bugungi kunda, Bankning tegishli tuzilmalari va Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurash boshqarmasi tomonidan bu borada qator amaliy ishlar, me'yoriy va huquqiy bazani shakllantirish masalalarida ko'plab tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Bank siyosati, nizomlar, harakat strategiyalari hamda tegishli hujjatlar loyihalari ishlab chiqilib, ijroga qaratilmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, korrupsiyani nafaqat kimdir yoki qaysidir idora aniqlab bartaraf etishi lozim, balki barcha fuqaro va ishchi xodimlar ham bu boradagi masalalarda mas'ul ekanliklari hamda korrupsiyaga qarshi kurashish munosabatini kuchaytirish lozimligi katta ahamiyat kasb etishi ma'lum bo'ladi.

Ko'rilgan masalalarni atroflicha muxokama qilib yig'ilish

Q A R O R Q I L A D I:

- Bankning tarkibiy bo'lim boshliqlari zimmasiga:

- Bank xodimlari o'rtasida jinoyatlarni xamda Korrupsion jinoyatlar xisoblangan tovlamachilik va firibgarlik jinoyatlarni barvaqt oldini olish yuzasidan" o'quv seminarlar tashkil etish va chora – tadbirlar rejasini ishlab chiqilsin.
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari ustuvor ekanligini xamda xar bir xodimni xar qanday noqonuniy qilingan xatti-xarakati uchun javobgarlik muqarrarligini bank xodimlari e'tiboriga takroran yetkazilsin

- Ushbu seminar yig'ilish qarorni bajarilishi bo'yicha nazoratni o'z zimmamda qoldiraman.

Yig'ilish kotibi: **R.Ibraximova**

O'zmilliybank AJ Uychi BXMda 2026 yil 25 fevral kuni o'tkazilgan yig'ilishda qatnashgan va yig'ilish qarori bilan tanishtirilgan xodimlar ro'yxati

T/R	Ф. И. Ш	Лавозими	Имзо
1	Maxamov Jamoliddin Sodiqjon ogli	Boshqaruvchi	
2	Kazakov Otabek Azamjonovich	Boshqaruvchi birinchi o'rinbosari	
3	Sobirjonov Maxmudbek Ravshanbek o'g'li	Boshqaruvchi o'rinbosari	
4	Raxmatov Nizomjon Bekmirzayevich	Bosh buxgalter	
5	Djalimova Gulnoza Adxamjonovna	Bosh buxgalter o'rinbosari	
6	Xojiyev Sobirjon Sultonmirzayevich	Yo'nalish menedjeri	
7	Eshonov Yusupxon Ergashevich	Loyiha menedjeri	
8	To'lqinov Bekzod Adxamjon o'g'li	Bosh mutaxassis	
9	Mamatkarimova Sevara Komiljonovna	Bosh mutaxassis	
10	Xaydarova Shoxista Quvataliyevna	Bosh mutaxassis	
11	Orziboyev Maxammadjon Zokirjon o'g'li	Bosh mutaxassis	
12	Umarov Qudratjon Ismoilovich	Bosh mutaxassis	
13	Bekmirzayev Alisher Toxirjon o'g'li	Bosh mutaxassis	
14	Adashev Akramjon Shermirzaevich	Yetakchi mutaxassis	
15	Ibraximova Robiya Sodiqjanovna	Yetakchi mutaxassis	
16	Xoshimov Abror Yodgor o'g'li	Yetakchi mutaxassis	
17	Sultanova Nurxon Akramovna	Yetakchi mutaxassis	
18	Xo'jaeva Go'zalxon Komiljonovna	Kassa mudiri	
19	Dadamirzaeva Nodira Xayrullaevna	Kassir	
20	Asqarova Iqbola Shermirzaevna	Kassir	
21	Yusupova Nodira Jaxongir qizi	Kassir	
22	Orziboyeva Nasibaxon Rasuljonovna	Kassir	
23	Atamirzayeva Feruzaxon Baxodirovna	Kassir	
24	Tojimirzayeva Gulzoda Baxodir qizi	Resepshn mutaxassis	
25	Bobomirzayev Farruxjon Maxamadjon o'gli	Maxalla bankiri	
26	Yulchibayev Nodirbek Jamoliddin o'g'li	Maxalla bankiri	
27	Abdukarimov Javoxir Abdubanno o'g'li	Bosh mutaxassis	
28	Xolmirzayev Baxodir Mirzaraxmatovich	Uychi BXM Yakuniy nazoratchi	
29	Xoshimov Sardorbek Isroil o'g'li	Bosh mutaxassis	
30	Yuldashev Dilmurod Abdubannoyevich	Bosh mutaxassis	
31	Kazakov Tursunali Kuchqarovich	Yetakchi mutaxassis	